# TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA NATYURMORT ISHLASH ORQALI O'QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH.



*Navoiy davlat pedagogika instituti*
***Tog'aev Keldiyor Xamidovich***
keldiyortogayev@gmail.com ***(+998936605302)***
***Olimova Olima Azizjon qizi***
*olimovaolima64@gmail.com* ***(+998 99 219 21 16)***



***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarining tasviriy san'at darslarida natyurmort ishlash orqali o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yo'llari, hamda o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Natyurmort, ijodiy qobiliyat, rangtasvir, kompozitsiya, pedagogik texnologiyalar.*

***Аннотация:*** *В статье представлена информация о способах развития творческих способностей учащихся посредством натюрмортной работы на уроках изобразительного искусства общеобразовательных школ, а также об их специфических особенностях.*

***Ключевые слова:*** *Натюрморт, творческие способности, живопись, композиция, педагогические технологии.*

*Abstract: This article provides information on ways to develop creative abilities of students through still life work in visual art classes of general secondary schools, as well as on their specific features.*

***Key words:*** *Still life, creative ability, painting, composition, pedagogical technologies.*

***Kirish***

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach , jahonga o'zini namoyon qilish uchun bel bog'ladi. Buning uchun fan va texnika yutuqlarini yangi kashfiyot jabhalarida qo'llaydigan va joriy qiladigan yetuk, malakali mutaxassislar havodek zarur. Yosh avlodni yuqori natijalarga erishishi uchun o'quvchilarni sohaga to'g'ri yo'naltirish ,darsda yangi metodlar , ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash, takomillashgan shaklda ta'lim-tarbiya berish, ularning qobiliyatini yanada rivojlantirishga xizmat qiluvchi shart -sharoit yaratish yaratish zarur. Turli xil badiiy va ijodiy faoliyat bizga bolaning shaxsiyatini shakllantirishda bebaho qiymat beradi.

**Asosiy qism:** Maktab o'quvchilariga tasviriy san'atni o'rgatishning eng asosiy an'anaviy usuli realistik ta'lim qobiliyatlarini dastlabki egallashni taklif qiladi. Eng katta e'tibor, albatta, o'quv jarayonining kasbiy o'zini o'zi belgilash, tizimlashtirish, ixtisoslashtirish va individualligini o'z ichiga oladi. Biz tasviriy san’at o‘qitishning samaradorligini oshirishning eng muhim shartlaridan biri deb quyidagilarni inobatga oldik: qalamtasvir va rangtasvirni o‘rganishda munosabatlarni izlash, bu yerda kompozitsiyani tashkil etish, tasvirni konstruktiv qurish, obyektlar, fazoviy munosabatlar, shakllarning ohang va rangdagi nisbatlarini yetkazish. Tasviriy san’at darslarida natyurmort ishlash mashg‘ulotlari yuqoridagi shartlarni amaliyotda tatbiq etishda katta ahamiyatga ega. Natyurmort janrida insonning atrofini o‘rab turgan maishiy muhitda joylashgan va kompozitsiya jihatdan yaxlit guruhni tashkil qilgan narsalar tasvirlanadi.

Natyurmort XVII asr boshlarida Gollandiyada paydo bo‘lib , ko‘plab mamlakatlarga tarqalgan, ayniqsa , XVIII asrning o‘rtasida tasviriy san‘atga keng rivoj topgan mustaq il janr hisoblanadi. O‘zbekistonda shakllanishi va rivojlanishi XX asrning 30-50-yillariga to‘g‘ri keladi. Ayni shu davrda rassomlarning ijodida natyurmortning dastlabki namunalari kurtak ocha boshladi. O‘zbek rassomlaridan L.Nasriddinov “ Nonli natyurmort” , Sh.Hasanova “Xitoy chinnisi bilan ishlangan natyurmort” va M. Kurzin , V. Rojdestvenskiy V. Ufimsiy , N. Kashina , Z. Kovalevskaya , O. Tatevosyan , S. Abdullayev, V. Fadeyev , Y. Yelizarov kabi ko‘plab natyurmort janrining ustalari o‘lkamiz noz-ne’matlarini o‘zlarining asarlarida mohirona ifodalaganlar. 60-80-yillarda L.Salimjonova ,Y. Taldikin , R.Choriyev, V. Burmakin, Y.Melnikov ijodida natyurmort keng o‘rin oldi . R.Ahmedov , A. Ikromjonov , M. Nuriddinov va boshqalar natyurmortda samarali ijod qilib , janr taraqqiyotini ta’minladilar.

Natyurmort mustaqil janr bo‘lishi bilan birga, mavzuli suratlardagi asarlarning mazmunini ochib berishga ko‘maklashuvchi , uni to‘ldiruvchi vosita bo‘lib ham xizmat qiladi. Taniqli rassomlar G‘. Abdurahmonovning “ Tarvuzli natyurmort ” va Y. Yelizarovning “Natyurmort” asarlarida turli mevalar , poliz ekinlaridan qovun va tarvuz, milliy matolar o‘ta jozibali tasvirlanganligi buning yaqqol namunasidir. Tasviriy san’at darslarida o‘zbek rassomlarining san’at asarlaridan namuna ko‘rsatish, ularning uslub va yo‘nalishlarini tahlil qilish orqali o‘quvchilarning bilim doirasini kengaytirish , milliy ruhda tarbiyalash maqsadga muvofiq. Darslarda natyurmort kompozitsiyasini tuzishda katta e’tibor berish lozim. Chunki, har qanday san’at asarining negizini kompozitsiya tashkil etadi. Kompozitsiya - ( compositio ) lotincha so‘z bo‘lib , tuzish birlashtirish , turli bo‘laklarni bir butun yaxlit biror g‘oyaga mos holda birlashtirish ma’nosini bildiradi.

Tasodifan terilib qolgan narsalarni nayturmort deb bo‘lmaydi. Natyurmort kompozitsiyasining ma’noli va ta’sirchan chiqishi uchun yagona mavzudagi bir-biriga

mos narsalar tabiiy bog‘lanishda qo‘yilishi shart. Mazmunli bo‘lishi uchun kichikroq narsalar oldinda , yiriklari orqa ko‘rinishda tasvirlanadi.Ufq chizig‘idan pastroqda joylashtiriladi. Dars jarayonida natyurmort kompozitsiyasini tuzishda o‘quvchilar bilan birgalikda turli xil variantlarda buyumlarni joylashtirib ko‘rish tavsiya etiladi. Shunda o‘quvchilarning qiziqishi ortib , estetik didi , fikrlash va borliqni his qilish, ko‘ra olish qobiliyati shakllanadi. Natyurmortni qog‘ozga joylashtirishdan oldin qulay rakurs tanlash, yoritilganlik darajasiga e’tibor berish (mabodo, tabiiy yorug‘lik kuchi yetarli bo‘lmasa , natyurmort yon tomoniga sun’iy yoritgich quyiladi ) , buyumlar nisbatini to‘g‘ri topish , so‘ngra formatni gorizontal yoki vertikal ushlab, ufq chizig‘ini belgilashdan boshlanadi.

O‘quvchilarga natyurmortni qog‘oz yuzasida puxta joylashtirishda , qog‘oz o‘lchamiga nisbatan tasvirning katta –kichikligi , narsalarning perspektivasini aniqlashda yaqindan yordam berish lozim. So‘ngra ranglash bosqichiga o‘tiladi. Akvarelda ranglash jarayonida birinchi qog‘ozni namlab olib ish boshlanadi. Namligicha ishlash usuli tasvirni nihoyatda nozik va jozibali ko‘rsatishga imkon yaratadi. Bo‘yoq qatlamlarni ustma –ust qo‘yib ishlash usulida qatlamlar ko‘payganligi sari rang tobora boyib, ta‘sirchanligi kuchayib boradi. Buyumlarning blik, yorug‘lik, yarim soya, soya , refleks , tushuvchi soyalari ko‘zdan kechirilib , 4 bosqichda birin- ketinlik bilan akvarel texnikasida bo‘yaladi. Natyurmortdagi fon yoki matoni bo‘yashda havo perspektiva qoidalari rioya qilib, oldin qismlari aniq, tiniq, yorqin qilib, orqa qismlari yengilroq, ochiq va xiraroq qilib ranglanadi.

Oxirgi bosqichda ingichka mo‘yqalam bilan bo‘laklarni ishlab chiqish, narsalarning asoslari yonidagi soyalarni biroz to‘qlashtirib , natyurmortning yaxlit va hamohang ko‘rinishiga erishiladi. Tushuvchi soya narsalarning fazoviyligi , qayerda turgani va qanday materialdan ishlangaligi haqida ma’lumot beradi. Natyurmortga qarab chizilgan rasmlarni bo‘yash (ya’ni rangtasvirda ishlash ) mashg‘ulotlarida o‘quvchilar e’tibori ranglar uyg‘unligini idrok qilishni rivojlantirishga , akvarel yoki guash bo‘yoqlari bilan asliga qarab eslab qolish va tasavvur qilishga qaratilgan. Eskiz ko‘p chizish orqali o‘quvchilar buyumlarning hajmini , shaklini , tuzilishi va o‘lchov nisbatlarini to‘g‘ri olishni o‘rganishadi. Ranglash orqali buyumlarning nafis ranglarini, serjilo soya – yorug‘ o‘yinlarini, tasvirlanayotgan buyumlar orasidagi mantiqiy bog‘liqlik mavjudligini , ranglarning bir-biriga hamohangligini his etishadi. Narsani o‘ziga qarab chizish o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatadi.

**Xulosa:** Tasviriy san’at o‘qituvchisining vazifasi o‘quvchilarga aniq bilimlarni berish, borliqdagi buyum narsalarning ranglarini ko‘ra olishlariga yordamlashish, kasbga nisbatan qiziqishlarini oshirishdir. Maqsadi esa o‘quvchilarni natyurmortning mazmun - mohiyati , uning o‘ziga xos tomonlari, natyurmort janridagi san’at asarlari , natyurmort ustalari bilan yaqindan tanishtirish ,ularni ushbu janrga qiziqishl arini orttirish , bilim, ko‘nikma , malakalarini hosil qilishdan iborat. O‘quvchilarni hozirgi

zamon talabi darajasiga tayyorlash, vatanimiz kelajagi uchun o‘z mustaqil fikriga ega yosh avlodni tarbiyalash pedagoglaring eng oliy maqsadlaridan biri bo‘lib qoladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**


1. Tog'aev Keldiyor Xamidovich , Rōzimurodova Sevinch G'ayratjon qizi , BOSHLANG‘ICH SINF TASVIRIY SAN’AT DARSLARIDA BORLIQNI IDROK ETISH MASHG‘ULOTLARINING AHAMIYATI VA «TASVIRIY SAN’AT FANINI O‘QITISH METODLARI» , TADQIQOTLAR: Vol. 27 No. 3 (2023): "TADQIQOTLAR jahon ilmiy-metodik jurnali | 27-son | 3-qism"
2. Tog'aev Keldiyor Xamidovich , Normurodova Hilola Asadjon qizi , TASVIRIY SAN’AT VA UNING MOHIYATI, TUR VA JANRLARI SAN’ATNING TARBIYAVIY AHAMIYATINI TALABALARGA AMALIY TADBIQ ETISH. , TADQIQOTLAR: Vol. 27 No. 2 (2023): "TADQIQOTLAR jahon ilmiy-metodik jurnali | 27-son | 2-qism"
3. Тоғаев, К. Х., & Рамозонова, Ф. Б. (2023). РАНГТАСВИРДА РАНГ МУНОСАБАТЛАРИ ХАМДА ИШЛАШНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ. *TADQIQOTLAR*, *27*(2), 85-89.
4. Sobirovna, A. R., & Khamidovich, T. K. (2023). THE ELECTROMAGNETIC EFFECT. *XALQARO ANIQ FANLAR TAHLILI*, *1*(2), 47-50.
5. Тоғаев, К. Х. (2023). ТАСВИРИЙ САНЪАТДАГИ МАНЗАРА КОМПОЗИЦИЯСИ ЖАНРИГА ОИД АСАРЛАРИ ИНСОНДА ТАБИАТГА ВА ГУЗАЛЛИК ФАЗИЛАТЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. *Oriental Art and Culture*, *4*(3), 393-398.
6. Tog‘ayev, K. X. (2022). TASVIRIY SAN’AT VA UNING MOHIYATI, TUR VA JANRLARI. *Innovative Development in Educational Activities*, *1*(6), 44-50.

   Келдиёр Хамидович Тоғаев ТАСВИРИЙ САНЪАТДАГИ МАНЗАРА КОМПОЗИЦИЯСИ ЖАНРИГА ОИД АСАРЛАРИ ИНСОНДА ТАБИАТГА ВА ГУЗАЛЛИК ФАЗИЛАТЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ // Oriental Art and Culture. 2023. №3. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/tasviriy-sanatdagi-manzara-kompozitsiyasi-zhanriga-oid-asarlari-insonda-tabiatga-va-guzallik-fazilatlarini-shakllantirish (дата обраще)
8. Keldiyor Xamidovich Tog’Ayev TASVIRIY SAN’AT MASHG’ULOTLARINI TABIAT QO’YNIDA TASHKIL TISHNING AFZALLIKLARI JIHATDAN PUXTA BILIM OLISHIGA ERISHISH VA O’QUVCHILARNING IJODKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH OMILLARIGA E’TIBOR QARATISH // Oriental Art and Culture. 2022. №2. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/tasviriy-san-at-mashg-ulotlarini-tabiat-qo-ynida-tashkil-tishning-afzalliklari-jihatdan-puxta-bilim-olishiga-erishish-va-o (дата обращения: 22.09.2023).

9. Dilmurod Xolmamatovich Axmedov XORIJIY TAJRIBALARDAN TASVIRIY SAN'AT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING IJTIMOIY PEDAGOGIK TARIXI VA ASOSLARI // Oriental Art and Culture. 2022. №2. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/xorijiy-tajribalardan-tasviriy-san-at-tizimini-takomillashtirishning-ijtimoiy-pedagogik-tarixi-va-asoslari (дата обращения: 22.09.2023).
10. Shovdirov, S. BB Boymetov Methods of Organizing Practical and Theoretical Classes for Students in The Process of Teaching Fine Arts International Journal on Integrated Education.
11. Niyazovish G. I. WAYS OF USE OF MODERN INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN FINE ARTS CLASSES AND THROUGH THE IMPROVEMENT OF IDEAS OF NATIONAL INDEPENDENCE TO STUDENTS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 9. – №. 12. – C. 234-237.
12. 12.Tog'ayev, K. X. (2022). TASVIRIY SAN'AT VA UNING MOHIYATI, TUR VA JANRLARI. *Innovative Development in Educational Activities*, *1*(6), 44-50.
13. Bobonazarov S. KOMPOZITSIYA MASHG 'ULOTLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING MUHIM EKANLIGI //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B6. – C. 11-14.
14. Bobonazarov S. U., Jalolov S. C. EtnomadiyFenomenonSifatidaNuzaSan'atlari //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR) https://www. tarj. in.
15. Soli Tolibovich SadiyevO'RTA ASRLAR SHARQ MINIATYURA MAKTABLARINING METODLARI // SAI. 2022. №C2. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/o-rta-asrlar-sharq-miniatyura-maktablarining-metodlari (дата обращения: 26.10.2023).
16. Choriyevich J. S. The role of composition in increasing the spatial imagination of students and students //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN. – 2021. – T. 2. – №. 11. – C. 15-17.
17. Choriyevich J. S. TASVIRIY SANATDA RANG VA YORUGLIKLARNING ORNI //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. C2. – C. 113-116.
18. Jalolov S. METHODOLOGY OF PROFESSIONAL TRAINING OF ARTS TEACHERS //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. B5. – C. 37-39.
19. Kulmuratov N. R. et al. VARIOUS ISSUES IN THE FIELD OF SETTING NONSTATIONARY DYNAMIC PROBLEMS AND ANALYZING THE WAVE STRESS STATE OF DEFORMABLE MEDIA //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 9. – C. 365-369.
20. Абдуллаев Акбар Хикматович НРАВСТВЕННОЕ И ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ УЧЕНИКОВ ЧЕРЕЗ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОЕ ИСКУССТВО // Academy. 2021. №4 (67). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/nravstvennoe-i-

esteticheskoe-vospitanie-uchenikov-cherez-izobrazitelnoe-iskusstvo (дата обращения: 02.11.2023).

21. Абдуллаев А. Х. ЎЗБЕКИСТОНДА ЧИЗМАЧИЛИК ВА ЧИЗМА ГЕОМЕТРИЯ ФАНИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТАРИХИ //ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ. – 2022. – Т. 5. – №. 3.
22. Аслонов Ф. Б. Тасвирий санъат дарсларида ўкувчиларнинг ижодий фаоллигини ошиpишнинг педогогик-психологик хусусиятлари //Муғаллим ҳем узликсиз билимлендириў Илимий-методикалық журнал. – 2021. – №. 5.
23. Usmonovna A. Z. THE USE OF CLASSIC STYLES IN MODERN FASHION //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. A4. – С. 263-264.
24. Usmonovna, A. Z. (2023). THE USE OF CLASSIC STYLES IN MODERN FASHION. *Science and innovation*, *2*(A4), 263-264.
25. Amonova Z. U., Vosiyeva A. T. MODELYER DIZAYNERLAR CHIZADIGAN INSON QOMATIDA LIBOSLARGA RANGNING BOSQICHMA-BOSQICH BERILISHI USULLARI //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 178-182.
26. Amonova, Z. U., &Vosiyeva, A. T. X. (2022). MODELYER DIZAYNERLAR CHIZADIGAN INSON QOMATIDA LIBOSLARGA RANGNING BOSQICHMA-BOSQICH BERILISHI USULLARI. *JournalofIntegratedEducationandResearch*, *1*(6), 178-182.
27. Xamidova G. X. MUHANDISLIK GRAFIKASI VA CHIZMA GEOMETRIYA FANLARIDAGI ONA TILI QOIDALARIGA XILOF, NOTO ‘G ‘RI VA NOANIQ BAYON QILINAYOTGAN TERMINLAR VA ULARNING OLDINI OLISH //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 203-207.
28. Xamidova, G. X. (2022). MUHANDISLIK GRAFIKASI VA CHIZMA GEOMETRIYA FANLARIDAGI ONA TILI QOIDALARIGA XILOF, NOTO‘G‘RI VA NOANIQ BAYON QILINAYOTGAN TERMINLAR VA ULARNING OLDINI OLISH. *Journal of Integrated Education and Research*, *1*(6), 203-207.
29. Xamidova G. X. CHIZMACHILIK FANINI O’QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH: GulmiraXamidovnaXamidova, NavoiydavlatpedagogikainstitutiSan’atshunoslikfakul’teti, Tasviriysanatvamuhahdislikgrafukasikafedrasioqituvchi //Научно-практическаяконференция. – 2022.
30. Vosiyeva A. USE OF TRANSFORMATION IN THE DIRECTION OF DESIGN AND ITS IMPORTANCE //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. A4. – С. 31-33.

31. Vosiyeva, A. (2023). USE OF TRANSFORMATION IN THE DIRECTION OF DESIGN AND ITS IMPORTANCE. *Scienceandinnovation*, *2*(A4), 31-33.
32. Shovdirov, S. BB Boymetov Methods of Organizing Practical and Theoretical Classes for Students in The Process of Teaching Fine Arts International Journal on Integrated Education.
33. Niyazovish G. I. WAYS OF USE OF MODERN INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN FINE ARTS CLASSES AND THROUGH THE IMPROVEMENT OF IDEAS OF NATIONAL INDEPENDENCE TO STUDENTS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 9. – №. 12. – С. 234-237.
34. Эсанова, Л. К. (2022). Деятельность в интересах подростков на уроках изобразительного искусства. Science and Education, 3(1), 1043-1047.
35. Bobonazarov S. KOMPOZITSIYA MASHG 'ULOTLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING MUHIM EKANLIGI //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. B6. – С. 11-14.
36. Эсанова, Л. К. (2022). Использование нетрадиционных техник в изотворчестве дошкольников. Science and Education, 3(12), 632-638.
37. Аслонов Ф. Б. Тасвирий санъат дарсларида ўқувчиларнинг ижодий фаоллигини оширишнинг педогогик-психологик хусусиятлари //Муғаллим ҳем узликсиз билимлендириў Илимий-методикалық журнал. – 2021. – №. 5.
38. Aslonov F. B. MAMLAKATIMIZNING TURLI HUDUDLARIDA GANCHKORLIK SAN'ATINING RIVOJLANISH TARIXI //Innovative Development in Educational Activities. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 218-221.
39. Botirovich A. F., Shukhratovna R. N. Pedagogical and psychological features of increasing the creative activity of students in art classes //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 12. – №. 1. – С. 48-53.
40. Тоғаев, К. Х., & Рамозонова, Ф. Б. (2023). РАНГТАСВИРДА РАНГ МУНОСАБАТЛАРИ ХАМДА ИШЛАШНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ. *TADQIQOTLAR*, *27*(2), 85-89.
41. Sobirovna, A. R., & Khamidovich, T. K. (2023). THE ELECTROMAGNETIC EFFECT. *XALQARO ANIQ FANLAR TAHLILI*, *1*(2), 47-50.
42. Тоғаев, К. Х. (2023). ТАСВИРИЙ САНЪАТДАГИ МАНЗАРА КОМПОЗИЦИЯСИ ЖАНРИГА ОИД АСАРЛАРИ ИНСОНДА ТАБИАТГА ВА ГУЗАЛЛИК ФАЗИЛАТЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. *Oriental Art and Culture*, *4*(3), 393-398.
43. Tog'ayev, K. X. (2022). TASVIRIY SAN'AT VA UNING MOHIYATI, TUR VA JANRLARI. *Innovative Development in Educational Activities*, *1*(6), 44-50.

44. 44.Тоғаев К. Х. ТАСВИРИЙ САНЪАТДА ЎҚУВ ПОРТРЕТЛАРИ БИЛАН ИЖОДИЙ ПОРТРЕТ ЎРТАСИДАГИ ФАРҚЛАРНИ ЎРГАНИШ //TADQIQOTLAR. – 2024. – Т. 31. – №. 3. – С. 152-160.
45. 45.Тоғаев, Келдиёр Хамидович. "ТАСВИРИЙ САНЪАТДА ЎҚУВ ПОРТРЕТЛАРИ БИЛАН ИЖОДИЙ ПОРТРЕТ ЎРТАСИДАГИ ФАРҚЛАРНИ ЎРГАНИШ." *TADQIQOTLAR* 31.3 (2024): 152-160.
46. 46.Тоғаев, К. Х. (2024). ТАСВИРИЙ САНЪАТДА ЎҚУВ ПОРТРЕТЛАРИ БИЛАН ИЖОДИЙ ПОРТРЕТ ЎРТАСИДАГИ ФАРҚЛАРНИ ЎРГАНИШ. *TADQIQOTLAR*, *31*(3), 152-160.
47. Kulmuratov N. R. et al. VARIOUS ISSUES IN THE FIELD OF SETTING NONSTATIONARY DYNAMIC PROBLEMS AND ANALYZING THE WAVE STRESS STATE OF DEFORMABLE MEDIA //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 9. – С. 365-369.
48. Mukhtarovich R. A. METHODS OF CREATING A SYSTEM OF GRAPHIC DESIGN ASSIGNMENTS FROM DRAWING //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 6. – С. 483-489.
49. Рустамов А. М. ЭСКИЗ ДЕТАЛЕЙ ИЗДЕЛИЯ НА СБОРОЧНЫХ ЧЕРТЕЖАХ МЕТОДИКА ЧТЕНИЯ //Scienceandinnovation. – 2022. – Т. 1. – №. C2. – С. 105-108.
50. 50.Muxtarovich R. A. METHODOLOGY OF CREATING A SYSTEM OF GRAPHIC TASKS FROM DRAWING //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 4. – С. 127-133.
51. Mukhtarovich R. A. The use of cream in the science of scientific topics in grades 1–4 of secondary schools //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 11. – С. 780-786.
52. Jalolov S. YURTIMIZ HUDUDLARIDA GANCHKORLIK SAN'ATININING RIVOJLANISH TARIXI //Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 32-34.
53. Jalolov S. XALQ AMALIY SAN’ATI ORQALI O ‘QUVCHILARDA MILLIY IFTIXOR TUYG ‘USINI SHAKLLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH //INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic:“Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions”. – 2023. – Т. 1. – №. 01.
54. Choriyevich J. S. The role of composition in increasing the spatial imagination of students and students //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN. – 2021. – Т. 2. – №. 11. – С. 15-17.
55. Choriyevich J. S. TASVIRIY SANATDA RANG VA YORUGLIKLARNING ORNI //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. C2. – С. 113-116.

56. Jalolov S. METHODOLOGY OF PROFESSIONAL TRAINING OF ARTS TEACHERS //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. B5. – С. 37-39.
57. Niyozovich G. I. et al. IQTISOSLASHGAN MADANIYAT MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN'AT MASHG 'ULOTLARIDA MANZARA JANIRINI O 'QITISHNING NAZARIY ASOSLARI //Research and Publication. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 4-9.
58. Niyozovich G. I. et al. O 'ZBEKISTONNING ILMIY-MADANIY ME'ROSLARINI JAMIYAT RIVOJLANISHDAGI O 'RNI //TADQIQOTLAR. – 2023. – Т. 28. – №. 4. – С. 40-45.
59. Gadoyev I., Hikmatova M. BUGUNGI KUNDA TALABANING FAZOVIY TASAVVURU VA MANTIQIY FIKRLASHINI TAKOMILLASHTIRISH TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MASALALARI HAQIDA //INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic:"Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions". – 2023. – Т. 1. – №. 01.
60. Niyozovich G. I. et al. AMALIY BEZAK SAN'ATINING NAQQOSHLIK YO 'NALISHINI RIVOJLANISHI VA AHAMIYATI HAQIDA //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 35. – №. 3. – С. 82-89.
61. Gadoyev I. Talabaning fazoviy tasavvurini va mantiqiy fikrlashni takomillashtirish //Xalqaro ko'p tarmoqli tadqiqot jurnali Hindiston. Infofaktor jurnal. – 2020.
62. Gadoe I. N. RANG TASVIR FANINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH: Ibrohim Niyozovich Gadoev Navoiy davlat pedagogika instituti San'atshunoslik fakul'teti, Tasviriy sanat va muhahdislik grafukasi kafedrasi oqituvchi //Научно-практическая конференция. – 2022.
63. Abdullaev A., Bobomurodova S., Juraeva O. THE ADVANTAGES OF AN INNOVATIVE APPROACH TO TEACHING AND DEVELOPMENT METHODS OF THE ARTISTIC AND TECHNICAL SKILLS OF STUDENTS IN VISUAL ARTS CLASSES //Science and innovation. – 2024. – Т. 3. – №. B1. – С. 335-339.
64. Abdullaev A., Bobomurodova S. THE MAIN FACTORS AFFECTING OF UZBEKISTAN AND CENTRAL ASIAN COUNTRIES TO THE DEVELOPMENT OF ART //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. C3. – С. 64-66.
65. Abdullayev A. H., Bobomurodova S. A. BO'LAJAK TASVIRIY VA AMALIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY VA MALAKAVIY TAYYORGARLIKLARINI TAKOMILLASHTIRISH //Scientific progress. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 908-910.

66. Tolibovich S. S., Mardonovna M. G. EXPRESSION OF REALITY IN MODERN UZBEK FINE ART //Science and Innovation. – 2023. – T. 2. – №. 2. – C. 16-19.
67. Mardonovna M. G. et al. ZAMONAVIY MODADA USLUBLARNING ORNI //Journal of Integrated Education and Research. – 2023. – T. 2. – №. 11. – C. 18-22
68. Guljamol M. SEMANTICS OF PATTERNS IN CARVINGS IN TRADITIONAL APPLIED ART AND THEIR SYMBOLIC AND EXPRESSIVE FEATURES //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 3. – C. 191-197.